

«BESH BARMOQ» METODI**Isroilova Farog'at Asqarali qizi***Chirchiq davlat pedagogika
Universiteti 19/8-guruh bitiruvchisi*

Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologikmuammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi shart-sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya XIX asrning 2-yarmida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari pedagogik

psixologiya rivojiga katta hissa qo'shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham

turtki berdi. Bixevioristik (qarang Bixeviorizm) psixologiya yo'nalishi tarbiyachi

va o'quvchiga tashqi muhitning ta'sirini Pedagogik psixologiya uchun asos qilib

oladi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bog'liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi.

Ta'lim psixologiyasida o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakteri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rganiladi. Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish

muhim masaladir. Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi — maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda

shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv materialini mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu

maqolani yoritishda adabiyotlar tahlili va metodologiyasida fikrlar shundan iboratki, ta'lim-tarbiyaning shaxsni kamol toptirish ishiga bog'liqligi milliy g'oyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi va uni ommaga yetkazuvchi kuchlarga bog'liqdir. Pedagogik – psixologiya fani ham jahon fani taraqqiyoti hamda va uning takomillashib boorish jarayonini, fanga kirib kelishi kutilgan yangiliklarni yanada aks ettiradi, albatta.

Shu maqsadda besh barmoq metodini ishlab chiqdim. Bu metod insonlarni o'zini, o'zligini, ruhiyatidagi muammolarni aniqlashda yordam beradi.

Maqsad: Sinaluvchilarda mavjud muammolarni diagnostika qilish va unga shaxsning munosabati, yondashuvi, yechimi korreksiyasini qilish

Metodikani o'tkazish tartibi:

Sinaluvchilar bir varoq oladi. Old tomonga O'ng qo'l kaffi va barmoqlarini, orqa tomonga, xuddi shunday chap qo'lini kaft va barmoqlari chiziladi.

O'ng qo'l har bir barmoqlariga insonlardagi yaxshi hislatlar, chap qo'l barmoqlariga esa odamlardagi salbiy jihatlar yoziladi:

- 1-barmoq ota-ona,
- 2-barmoq ustozlari
- 3-barmoq tengdoshlari
- 4-barmoq yaqin do'sti yoki dugonasi
- 5-barmoqqa esa kichkintoylar (uka yoki jiyalar...)

Chap qo'l barmoqlariga yozilgan insonlardagi salbiy tomonlarini qanday yo'qotish haqida savollar beriladi. Sinaluvchining o'zi bunga yechim topib beradi.

Kichik muammolar bo'lsa, ularni, bir qarsak chalib tushurib qolish

Chap qo'l barmoqlariga yozilgan insonlardagi salbiy tomonlarni qanday yo'qotish haqida savollar beriladi. Sinaluvchining o'zi bunday o'zi bunga yechim topib beradi. Kichik muammolarni qarsak chalib yo'q qilish, ya'ni bir-ikki qarsak chalib tushurib qoldirish mumkin bo'lgan muammolarni chapak chalib, barmoqlarimiz orasidan tushurib yuboramiz. Kata muammolarni ildizi atrof-muhitmi, ota-onadan olingan «namuna»mi yoki

tengdoshlarining ta'sirimi aniqlanadi va uni korreksiya qilinadi.



Chap qo'lga salbiy jihat

1-barmoq ota-ona,

2-barmoq ustozlari

3-barmoq tengdoshlari

4-barmoq yaqin do'sti yoki dugonasi

5-barmoqqa esa kichkintoylar (uka yoki jiyanlar...)



O'ng qo'lga salbiy jihat

1-barmoq ota-ona,

2-barmoq ustozlari

3-barmoq tengdoshlari

4-barmoq yaqin do'sti yoki dugonasi

5-barmoqqa esa kichkintoylar (uka yoki jiyanlar...)

Yozgan ijobiy va salbiy jihatlar insonning o'zida mavjud ekanligi aytiladi. Chunki psixologiyada inson o'zida bor narsalarni boshqalarda ko'radi, degan tamoyil mavjud.

Natija: har bir inson o'zidagi ijobiy va salbiy jihatni bilib oladi va salbiy tomonlarni korreksiya qilishga harakat qiladi. Shunday qilib, inson o'z xatolarini, kamchiliklarini va shu bilan birga ijobiy jihatlarini, insoniylik fazilatlarini bilib oladi.

18-maktabda 60 kishida 6-8 sinf o'quvchilarida sinab ko'rdim. Asosiysi, o'quvchilari sinalib, o'zlari muammoni aytib, yechimini ham o'zlari aytishdi. Natijasi ijobiy bo'ldi. Chunki muammo aniqlandi va ildizi topildi va uni korreksiya qilindi. O'smir bolalarda muammoning aksari ota-onalari bilan bo'lib, unga tengdoshlarining ta'siri ham bo'lgan.

Bu metodikani 7 yoshdan 70 yoshgacha qo'llash mumkin.

Bolalar ustida psixologik tadqiqotlar o'tkazish tajribasi shundan dalolat beradiki, qo'llanilayotgan psixodiagnostika metodikalarini shartli ravishda u yoki bu psixik jarayonlarni o'rganish metodikalariga ajratish mumkin. (L.I.Poperechnaya 1978; L.A.Venger, V.V.Xolmovskaya 1978; Z.I.Kalmikova, 1982; V.M.Bleyxer, I.V.Kruk, 1986). Masalan, bola xotirasi haqida faqat bir metod asosida xulosa chiqarish mumkin emas, buning uchun metodikalar majmuini qo'llash kerak. Shu bilan bir vaqtda, har bir eksperimental metodika o'zining asosiy yo'nalishidan tashqari (ya'ni shaxsning ma'lum xususiyatini o'rganishdan tashqari) psixikaning boshqa xususiyatlarining holati haqida ba'zi ma'lumotlar beradi. Masalan: bolaga berilgan 10 ta so'zni qanday yodlashiga qarab, faqat uning xotirasi haqidagina emas, balki ixtiyoriy diqqati, harakatlarining maqsadga yo'naltirilganligi, ularning sabablari haqida ham bilsa bo'ladi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotning sifati eksperimentda qo'llaniladigan metodikalar soniga bog'liq bo'ladi. Lekin bog'cha va maktab yoshidagi bolalar bilan tadqiqot o'tkazganda ularning tez charchashini hisobga olish zarur. Shuning uchun bir tadqiqot o'tkazganda, tadqiqot vazifalariga bog'liq ravishda tanlangan 5 – 7 metodikadan foydalanish tavsiya etiladi. Bir necha bosqichda o'tkaziladigan tadqiqotlarda ko'proq metodikalardan ham foydalanish mumkin. Eksperimental tadqiqot usullarini yaxshi egallash ham muhimdir. Tadqiqotchi tajriba vaqtida bola bilan qanchalik yaxshi munosabatda bo'lsa, bola topshiriqni shunchalik yaxshi bajaradi.

Tadqiqot o'tkazish uchun eksperimental metodikalarni tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

a) tadqiqot maqsadi – psixik taraqqiyot darajasini aniqlash, uning yoshiga, ma'lumotiga mosligi, shaxs xususiyatlarini aniqlash;

b) sinaluvchining yoshi va uning hayot tajribasi, unga ta'lim va tarbiya berilayotgan sharoit;

v) bolaning eksperimental tadqiqotga moslashishi, muloqotga kirishishi, verbal aloqa o'rnatish xususiyatlari.

Bolaga tanlangan eksperimental psixologik metodikalarni qiyinligi o'sib borish darajasida berish kerak.

Shunday qilib, mana shunday metodlar orqali bolalarning ichki holati va muammolari aniqlanadi. Ularga diagnoz qo'yilgach, tub ildizini topib, uni korreksiya qilinadi. Vatanimizga, xalqimizga go'zal xulqli barkamol avlod yetishiga sabab bo'ladi.